

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336.1(575.1)

ABDULLAYEV ASRORJON RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA XALQARO VALYUTA
OPERATSIYALARINING RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

70410401– Davlat moliyasi va xalqaro moliya mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:


i.f.n. dots: N. Tilabov

Toshkent - 2023


Magistrlik dissertasiya ishi moliya kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

12-sonli bayonnoma " 25 " april 2023 y.


Kafedra mudiri: Xudoyqulov X.X.


imzo sana

Ilmiy rahbar: Tilabov N.T.


imzo sana

Talaba: Abdullayev A.R.


imzo sana

Dissertasiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida 2023
yil " 30 " may

No MBF-01/24 raqami bilan ro'yxatga olinadi.

ANNOTATSIYA

Ushbu dissertasiya ishida mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining mohiyati va ularni tasniflanishi tashkiliy asoslari, xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari, maqsad va vazifalari atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Tijorat banklari valyuta operatsiyalari mohiyatini ochib berish, tasniflash va ularning turlarini ko'rsatib berish, tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini o'rganish, tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini o'tkazishdagi muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni o'rganish va tijorat banklari valyuta operatsiyalarini rivojlantirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: xalqaro valyuta, tijorat banklar, bank kreditlari, valyuta bozori, markaziy bank, chet el valyutasi, milliy valyuta, chet el banklari.

Abstract

In this dissertation work, the nature of foreign exchange transactions carried out by commercial banks in our country and their organizational bases, the legal bases of the implementation of international currency transactions, goals and tasks have been thoroughly studied. Also, attention is paid to the development of foreign exchange operations carried out by commercial banks in our country. To reveal the essence of commercial banks' foreign exchange transactions, to classify them and to indicate their types, to study the procedure of foreign exchange transactions of commercial banks, to study the problems of commercial banks in conducting foreign exchange transactions and the measures developed to eliminate them Proposals and recommendations were developed regarding study and development of foreign exchange operations of commercial banks.

Key words: *international currency, commercial banks, bank loans, currency market, central bank, foreign currency, national currency, foreign banks.*

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| Annotasiya..... | 3 |
| Mundarija..... | 5 |
| Keltirilgan jadvallar ro'yxati..... | 6 |
| Keltirilgan rasmlar ro'yxati..... | 7 |
| Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati..... | 8 |
| I BOB. KIRISH..... | 9 |
| 1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi..... | 10 |
| 1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalar..... | 12 |
| 1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari..... | 12 |
| 1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti..... | 13 |
| 1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati..... | 13 |
| 1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi..... | 14 |
| II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI..... | 16 |
| 2.1. Kirish..... | 16 |
| 2.2. Mavzuga oid ilmiy-amaliy qarashlar sharhi..... | 16 |
| 2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy xujjatlar sharhi..... | 22 |
| 2.4. Xulosa..... | 34 |
| III BOB. METODOLOGIYA..... | 35 |
| 3.1. Tadqiqot dizayni..... | 35 |
| 3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni..... | 35 |
| 3.3. Tahlil uchun qo'llanilgan usullar..... | 36 |
| 3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar..... | 36 |
| 3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi..... | 37 |
| 3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan natijalar..... | 37 |
| IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR..... | 38 |

| | |
|---|-----------|
| 4.1. O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarining mohiyati va ularni tasniflanishi..... | 31 |
| 4.2. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarini amaldagi holati tahlili..... | 41 |
| 4.3. O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini bajarishda chet el banklari tajribasi..... | 59 |
| V BOB. XULOSA..... | 67 |
| 5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi..... | 67 |
| 5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari..... | 68 |
| 5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqot uchun takliflar..... | 71 |
| Foydalanilgan adabiyotlar..... | 73 |
| Hovalar..... | 77 |

I-BOB. KIRISH

Yangi texnologik o'zgarishlar va moliyaviy xizmatlar bozorida jarayonlarning raqamlashuvi bilan virtual hayot jismoniy hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa moliyaviy xizmatlar bozorining raqamli transformatsiyasi bozorga radikal innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar kirib kelishiga olib kelmoqda. So'nggi o'n yillikda mobil to'lovlardan tortib raqamli pullargacha bo'lgan ko'plab misli ko'rilmagan moliya va bank sohasiga taalluqli texnologik innovatsiyalariga boy bo'ldi. Texnologiyadagi bunday o'zgarishlar insonlarni turmush tarzi va biznes yuritish qoidalarini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Internet va mobil aloqaning global tarqalishi bank tizimi va moliyaviy to'lovlarning yangidan-yangi shakllarini rivojlanishiga yordam bermoqda. Raqamli to'lovlar moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishning yangi usullari sifatida hayotimizga kirib kelmoqda. Raqamli to'lovlar raqamli vositalardan foydalangan holda har qanday to'lov turlariga, jumladan, mobil to'lovlar, mobil hamyonlar, kriptovalyutalar va elektron to'lovlarni o'z ichiga qamrab oladi. Banklarning raqamli transformatsiyalashuvi bank operatsiyalarini zamon va makon chegaralarisiz amalga oshirish uchun so'nggi texnologik yutuqlardan foydalanishni anglatadi. Shunday qilib, u elektron banking, internet banking va onlayn banking kabi tez-tez ishlatiladigan atamalarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda AQShdagi 68% dan ortiq uy xo'jaliklari onlayn bank xizmatlaridan foydalanishmoqda. 2024 yilga borib esa, butun dunyodagi onlayn va mobil bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2.5 milliarddan oshishi kutilmoqda (Banking Statistics to Make The Penny Drop in 2022). Ayrim rivojlangan davlatlar, masalan Norvegiya, Shvetsiya va Niderlandiya kabi davlatlar yaqin kelajakda barcha to'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirishi kutilmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya va Kanada kabi davlatlarda esa aholi ko'proq to'lash-uchun-tegizish hamda raqamli hamyonlardan foydalanmoqda. Hindiston va Xitoyda aholining katta qismi QR kod texnologiyasi orqali raqamli to'lovlarni va mobil hamyonlardan foydalanishni keng qamrovli amalga oshirishmoqda.